



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



**No11**  
**2025**

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 310 sahifa,  
4-noyabr, 2025-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo‘yicha  
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Oilaning maktabgacha yoshdagi bolalar estetik tarbiyasidagi o'rni .....	24
<i>Abdullayeva Ma'sudaxon Abdubannayevna</i>	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga metodik tayyorlash texnologiyalari .....	27
<i>Abdubannoyeva Muxlisaxon Iqboljon qizi, Abdullayev Alibek Qodiraliyevich</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida bulutli xizmatlardan foydalanish zaruriyati .....	30
<i>Abdullayev Alibek Qodiraliyevich, Turdaliyeva Muslimaxon Jahongir qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida fortepiano chalishni o'rgatish metodikasi .....	34
<i>Abduvaxobova Nilufar Abdumannon qizi</i>	
Maktabda fizika fanini o'qitishda innovatsion yondashuv .....	38
<i>Alinazarova Mahfuza</i>	
Tasavvufdagi "komil inson" konsepsiyasining hozirgi ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv sifatida talqini .....	43
<i>Aqilxonov Saidolimxon Abdurashid o'g'li</i>	
Tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirish omillari va pedagogik shart-sharoitlar .....	48
<i>Choriyeva Gulbaxor Shotemirovna</i>	
Robototexnika fanini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanib mustaqil ta'limni tashkil etish .....	53
<i>Elmonov Sirojiddin Mamadiyarovich</i>	
Xalqaro baholash dasturlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash bo'yicha jahon tajribasi .....	58
<i>Ergasheva S. T.</i>	
Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar orqali o'quvchilarning kognitiv salohiyatini rivojlantirish .....	61
<i>Eshmamatova Dilnoza Jovli qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy salohiyatini oshirishda tarbiyachi mahorati .....	64
<i>Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi</i>	
Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishni takomillashtirish .....	68
<i>Hojikarimova Gulasal Tadjaliyevna</i>	
Xorijiy talabalarga o'zbek tilini o'rgatishda elektron platformalar yaratish .....	71
<i>Jo'rayeva Matluba</i>	
Bo'lajak o'qituvchilar uchun raqamli ta'lim muhitini modellashtirish va uning samaradorlik omillari .....	74
<i>Komilova Z. X.</i>	
O'qituvchi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyati .....	80
<i>M. Yu. Mahkamova</i>	
Psixologiya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va talabalarda tahliliy fikrlashni shakllantirish masalalari .....	86
<i>Madazizova Dilfuza Raxmatullayevna</i>	
Integrating Listening and Speaking Skills in ESP (English for Specific Purposes) Classes .....	90
<i>Madina Tilavova</i>	
Bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida neyropedagogik yondashuvlar .....	94
<i>N. O. Saidova</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida radiologiya fanini o'qitishda raqamli texnologiyalarning metodologik roli .....	99
<i>Nazarova Gulchexra Shuxratdjonovna</i>	
Ijodkorlik tushunchasining mohiyati va uning ta'limdagi roli .....	103
<i>Ochilova Dilbar Isroilovna</i>	
Alaliyani boshqa nutqiy nuqsonlar bilan farqli xarakteristikasi .....	108
<i>Oripova Zilola</i>	
Ingliz tilini o'qitishda suggestopediya metodini joriy etishning samaradorligi .....	113
<i>Pulatova Sitora Abdurazzoq qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalari menejerlarining kasbiy-boshqaruv kompetentligi tushunchasi va uning tarkibiy qismlari .....	118
<i>Qarshiboyev Sharof Egamnazarovich</i>	
Koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishning yosh badmintonchilar texnik-taktik tayyorgarligiga ta'siri .....	122
<i>Qurbanova Ilmira Alisher qizi</i>	



Blended Learning .....	125
<b>Quvandikova Xadicha</b>	
Fizika darslarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish .....	129
<b>Raxmanov Valijon Turdaliyevich, O'razaliyev Alijon Xasan o'g'li</b>	
“Qurilish jarayonlari texnologiyasi” fanida loyihalash kompetentligining tarkibiy tuzilmasi va uni raqamli ta'limga moslashtirish .....	135
<b>Raxmonova Nazokat Umaraliyevna</b>	
Vitagen texnologiyalar asosida talabalar mediamentalitetini rivojlantirishda sun'iy intellekt (AI) dasturlaridan foydalanishning tahliliy modeli .....	140
<b>Rustamova Nodira Rustamovna</b>	
Talabalarda kooperativ ta'lim asosida motivatsiyani rivojlantirish usullari .....	145
<b>Sitora Toshmatova</b>	
STEAM yondashuvi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ kompetensiyani shakllantirishning zaruriyati .....	149
<b>Tashibekova Munajat Xoshimovna</b>	
Musiqqa ta'limining pedagogik asoslari va metodik tizimi .....	153
<b>Toshpulatova Saida Kuzibaevna</b>	
Texnologiya fanini o'qitishda eng samarali metodlardan foydalanish .....	158
<b>Turdiyeva Shahzoda Eshdavlrat qizi</b>	
Enhancing University Students' Self-Directed Learning Through Edtech Tools .....	161
<b>Ulasheva Lobar</b>	
Fanlararo loyiha ishlarini tashkil etish orqali o'quvchilarning dizayn fikrlash salohiyatini oshirish .....	164
<b>Valiyeva Nargiza Athamboyevna</b>	
Alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslari.....	169
<b>Xakimova Sarvinov Sharifjon qizi</b>	
Sun'iy intellekt asosida yaratilgan ta'lim platformalari: samaradorlik tahlili va pedagogik yondashuvlar .....	173
<b>Xanbabayev Hakimjon Ikramovich, Erkinov Jasurbek Hasanjon o'g'li</b>	
Tasavvufdagi “muhosaba” va “tafakkur” amallarining o'z-o'zini refleksiya metodlari sifatida qo'llanilishi .....	176
<b>Xoshimov Nuriddin Mamadaliyevich</b>	
Milliy sport va ommaviy o'yinlarning badiiy-estetik ahamiyati.....	182
<b>Yaxyayeva Sojida Abdurahimovna</b>	
Ota-ona mehriining bola psixologiyasiga ta'siri .....	185
<b>Yulchiyeva Shohsanam Dilshod qizi</b>	
Nutq rivojlanishi orqada qolgan bolalarda qo'llaniladigan innovatsion usullari samaradorligi .....	189
<b>Ahmedova Nargiza Muzaffarovna</b>	
Факторы, сдерживающие развитие науки в контексте требований к диссертационным работам .....	193
<b>Зайналов Жахонгир Расулович, Нурмухамедов Аббос Мамадалиевич, Шадманов Камолиддин Кажакджанович, Самигова Нодира Хамидуллаевна</b>	
Структура и стратегии развития предметных компетенций .....	197
<b>Наимова Мафтунабону Файзулложоновна</b>	
Психологическая консультация: современная практика, задачи и перспективы развития .....	203
<b>Раупова Шохида Ахроровна</b>	
Подготовка будущих педагогов к инклюзивному обучению детей с ограниченными возможностями здоровья: задачи и перспективы .....	207
<b>Сайфутдинова Насиба Нурматовна</b>	
Формирование иноязычной грамотности у курсантов военных вузов: социально-психологические факторы.....	211
<b>Сулейманова Нилуфар Камилловна</b>	
O'qituvchi shaxsiy kompetensiyasining mohiyati va pedagogik faoliyatdagi o'rni .....	214
<b>Abdiraxmonova Guliston Muzaffar qizi</b>	
Bolalarda axloqiy qadriyatlarini shakllantirish jarayonining milliy va umuminsoniy tamoyillari .....	218
<b>Abdumutalipova Gulshodaxon Nurbek qizi</b>	
Fuqarolik jamiyatida huquqiy madaniyat va uni rivojlantirish jarayonlari .....	221
<b>Abdusalimova Shaxnoza Quduratullayevna</b>	
Ta'lim menejmenti tizimida o'qituvchining nutq madaniyatini rivojlantirish strategiyalari .....	224
<b>Abduxalilova Iroda Nozimxonovna</b>	

O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy-pedagogik hamkorlikda tarbiyalashda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"ning ustuvor vazifalari .....	229
<b>Abirova Umida Nazarovna</b>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv ta'lim sharoitida differensiyalashtirilgan dars mashg'ulotlarini tashkil etishga o'rgatish (kompetentligini shakllantirish/rivojlantirish) usullari.....	232
<b>Adhamova Diyora Sanjar qizi</b>	
Musobaqa faoliyati samaradorligini oshirishda sambochilarning energiya sarfi va tiklanish mexanizmlari tahliliy .....	239
<b>Tangriyev Abdukarim Tovashevich</b>	
Aksiologik yondashuv asosida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining harakat faolligini takomillashtirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati.....	244
<b>Hafizov Shahriyor Shavkatovich</b>	
Bo'lajak tarbiyachilarning transversal: tanqidiy va innovatsion fikrlash kompetensiyalari .....	248
<b>Jaloliddinova Maftunaxon Mahmudjon qizi</b>	
Axborotning gnoseologik mohiyati.....	256
<b>Kamolova Munajatxon Jaloldinovna</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish yo'llari .....	259
<b>Mamatova Aziza Bo'ribojevna</b>	
Akademik litseylarda kimyo fanini o'qitishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari ....	262
<b>Maxamadiyev Sharofiddin Jumaboyevich</b>	
Pedagogik oliy ta'limda talabalarning kasbiy ijtimoiylashuvini korporativ madaniyat asosida rivojlantirish metodikasi.....	267
<b>Maxkamova Dilafuz Aliyevna</b>	
Bo'lajak o'qituvchilar uchun xorijiy tillarni o'qitishda lingvomadaniy yondashuv .....	271
<b>Normamatova Kamola Gulmamat qizi</b>	
O'zbek tili izohli lug'atida iboralarning grammatik tavsifi (bosh komponentli iboralar misolida).....	274
<b>S. Sh. Azamatova</b>	
Oila instituti va gender tenglikni ta'minlashning ijtimoiy-huquqiy muammolari .....	277
<b>Salayeva Aziza Muhammadmurot qizi</b>	
Gender yondashuv asosida talaba-qizlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning namunaviy mezonlari.....	282
<b>Xolova Mohigul Shavkatovna</b>	
Pedagogika yo'nalishi talabalari huquqiy savodxonligini rivojlantirish metodlarini takomillashtirish.....	287
<b>Xudoyberganov Atham</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida leksik komponentlikni TRIZ texnologiyasi yordamida rivojlantirish .....	291
<b>Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Fayzullayeva Nazokat Uchqun qizi</b>	
Цифровизация и трансформация образования как социально-педагогическое явление .....	295
<b>Кадирова Наргиза Азаматовна</b>	
Методика формирования креативного мышления у студентов-филологов на основе проблемно-ориентированных заданий (на материале английского языка) .....	298
<b>Мамырбаева Дина</b>	
Структура и стратегии развития предметных компетенций .....	304
<b>Наимова Мафтунабону Файзулложоновна</b>	



# BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA LEKSIK KOMPONENTLIKNI TRIZ TEXNOLOGIYASI YORDAMIDA RIVOJLANTIRISH

Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna  
 Farg'ona davlat universiteti professori

Fayzullayeva Nazokat Uchqun qizi  
 Farg'ona davlat universiteti magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining leksik kompetentligini shakllantirish jarayoni va bu jarayonda TRIZ texnologiyasidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari tahlil etiladi. Zamonaviy ta'lim tizimi o'quvchining faqat bilim olishini emas, balki uni mustaqil fikrlash, so'z orqali ifodalash va ijodiy yondashishga o'rgatishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, leksik kompetentlikni rivojlantirish o'quvchilarning nutq madaniyatini, tafakkurini va kommunikativ salohiyatini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqolada TRIZ texnologiyasining asosiy tamoyillari – muammoli vaziyat yaratish, qarama-qarshiliklarni aniqlash, ijodiy yechim topish va fantaziya orqali fikrni kengaytirish kabi elementlarning leksik mashg'ulotlarda qo'llanish usullari ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, TRIZ texnologiyasi asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning so'z boyligini sezilarli darajada kengaytiradi, ularning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va so'zlardan ijodiy foydalanish ko'nikmalarini shakllantiradi. Mazkur yondashuv nafaqat til o'rganish jarayonini jonlantiradi, balki boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning shaxsiy intellektual rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** leksik kompetentlik, TRIZ texnologiyasi, ijodiy fikrlash, boshlang'ich ta'lim, nutq madaniyati, innovatsion yondashuv, pedagogik texnologiyalar.

**Abstract:** This article analyzes the process of developing lexical competence among primary school students and the pedagogical potential of using the TRIZ technology in this process. The modern education system requires not only knowledge acquisition but also the development of students' independent thinking, verbal expression, and creative approach. From this perspective, enhancing lexical competence plays a crucial role in improving students' speech culture, reasoning, and communicative abilities. The article explores the main principles of TRIZ – creating problem situations, identifying contradictions, finding creative solutions, and expanding thinking through imagination – and demonstrates their application in lexical lessons. According to the research findings, TRIZ-based lessons significantly enrich students' vocabulary and foster their abilities in independent thinking, analysis, and creative language use. This approach not only revitalizes the language learning process but also positively contributes to the personal and intellectual development of primary school learners.

**Key words:** lexical competence, TRIZ technology, creative thinking, primary education, speech culture, innovative approach, pedagogical technologies.

**Аннотация:** В данной статье анализируется процесс формирования лексической компетенции у учащихся начальных классов и педагогические возможности использования технологии ТРИЗ в этом процессе. Современная система образования требует не только передачи знаний, но и развития у учащихся навыков самостоятельного мышления, речевого самовыражения и творческого подхода. С этой точки зрения развитие лексической компетенции играет важную роль в повышении культуры речи, мышления и коммуникативного потенциала школьников.

В статье рассматриваются основные принципы технологии ТРИЗ – создание проблемной ситуации, выявление противоречий, поиск творческого решения и расширение мышления с помощью воображения – и показаны пути их применения на лексических занятиях. Результаты исследования показывают, что уроки, основанные на технологии ТРИЗ, значительно расширяют словарный запас учащихся, развивают их навыки самостоятельного анализа, творческого использования слов и критического мышления. Данный подход не только оживляет процесс изучения языка, но и положительно влияет на личностное и интеллектуальное развитие учащихся начальных классов.

**Ключевые слова:** лексическая компетенция, технология ТРИЗ, творческое мышление, начальное образование, культура речи, инновационный подход, педагогические технологии.

## KIRISH

XXI asr ta'limi o'quvchini tayyor bilim egasi sifatida emas, balki mustaqil fikrlovchi, muammoni tahlil qila oluvchi va ijodiy yechim topuvchi shaxs sifatida shakllantirishni maqsad qiladi. Shu bois, bugungi kunda boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning nutqiy, leksik va tafakkuriy kompetentligini rivojlantirish muhim metodik vazifalardan biri hisoblanadi.

Leksik kompetentlik – bu o'quvchining til boyligini ongli ravishda o'zlashtirishi, so'z ma'nolarini tushunib, ularni muloqot jarayonida to'g'ri va o'rinli qo'llay olish qobiliyatidir. Aynan boshlang'ich sinf davrida bu ko'nikma shakllanadi va bolaning keyingi ta'lim bosqichlaridagi muvaffaqiyatiga zamin yaratadi. Shu sababli, leksik kompetentlikni rivojlantirish metodlari va vositalarini takomillashtirish bugungi ta'lim tizimining dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Ta'lim jarayonida TRIZ (Ijodiy muammolarni yechish nazariyasi) texnologiyasidan foydalanish – o'quvchilarning tafakkurini faollashtirish, mantiqiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirishning samarali vositasidir. TRIZ texnologiyasi o'quvchini standart fikrlash doirasidan chiqishga, so'zlar o'rtasidagi bog'lanishlarni izlashga hamda yangi ma'no va obrazlar yaratishga undaydi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, hozirgi boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilarning leksik kompetentligini oshirish bo'yicha ko'plab usullar mavjud bo'lsa-da, TRIZ texnologiyasi elementlarini bu jarayonga uyg'unlashtirish masalasi hali yetarlicha chuqur o'rganilmagan. Shu bois, ushbu maqolada TRIZ texnologiyasi yordamida o'quvchilarning leksik kompetentligini shakllantirishning metodik imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Maqolaning maqsadi – TRIZ texnologiyasining pedagogik imkoniyatlarini aniqlash va uni boshlang'ich sinf o'quvchilarida leksik kompetentlikni rivojlantirish jarayonida qo'llashning samarali yo'llarini asoslab berishdir.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'lim tizimida kompetentlik yondashuvi so'nggi yillarda o'quvchi shaxsini rivojlantirishning markaziy yo'nalishiga aylandi. Olimlar fikriga ko'ra, kompetentlik – bu nafaqat bilim va ko'nikmalar majmui, balki ularni amaliy vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatidir (X. Choriev, 2018). Boshlang'ich ta'limda, ayniqsa, leksik kompetentlikni shakllantirish o'quvchilarning nutqiy, kommunikativ va tafakkuriy rivojlanishining asosi sifatida qaraladi.

Tilshunos olim G. Davletova (2020) o'z tadqiqotida leksik kompetentlikni “o'quvchining so'z ma'nosini anglash, uni kontekstda o'rinli ishlatish va nutq madaniyatini ifodalash qobiliyati” sifatida izohlaydi. A. Azizova (2019) esa bu kompetentlikni o'quvchi tafakkurining ifodasi deb biladi va uni rivojlantirish uchun innovatsion o'yin texnologiyalarini taklif etadi.

Shu bilan birga, leksik kompetentlikni rivojlantirishda faqat so'z yodlash emas, balki so'z orqali fikrlash ko'nikmasini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon o'quvchining mantiqiy, analitik va ijodiy tafakkurini faollashtiruvchi metodlarni talab etadi.

Ana shunday samarali metodlardan biri – TRIZ texnologiyasi (rus olimi G. S. Altshuller tomonidan ishlab chiqilgan “Ijodiy muammolarni yechish nazariyasi”)dir. TRIZ texnologiyasining asosiy g'oyasi shundaki, har bir muammo o'z ichida uni yechish imkoniyatini ham mujassam etadi. Ta'lim jarayonida ushbu texnologiyadan foydalanish o'quvchilarda nooddiy fikrlashni, muammoga turli nuqtai nazardan qarashni va ijodiy yechim topish ko'nikmalarini rivojlantiradi (A. Savinov, 2017).

TRIZ texnologiyasi asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar bolalarda mantiqiy tafakkur, ijodiy izlanish va so'z bilan tasvirlash ko'nikmasini shakllantiradi. Psixolog S. Ginzburg (2021) ta'kidlashicha, TRIZ bolalarda “ijodiy refleksiya”ni rivojlantiradi, ya'ni o'quvchi o'zi topgan g'oyani baholay oladi va uni yangi holatlarda qo'llashni o'rganadi.

O'zbekistonlik olim N. Mamatova (2022) o'z maqolasida TRIZ elementlarini boshlang'ich ta'limda qo'llash orqali o'quvchilarda nutq faolligini hamda til materialiga ijodiy yondashuvni kuchaytirish mumkinligini asoslab bergan. Unga ko'ra, TRIZning “qarama-qarshiliklarni aniqlash”, “fantaziyalar dunyosi” va “ideal natija tamoyili” kabi usullari ayniqsa leksik mashg'ulotlarda yuqori samaradorlik beradi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, leksik kompetentlikni rivojlantirish va TRIZ texnologiyasini ta'lim jarayoniga tatbiq etish borasida alohida tadqiqotlar mavjud, biroq bu ikki yo'nalishning o'zaro integratsiyasi hali to'liq ishlab chiqilmagan. Shu jihatdan, mazkur tadqiqot ushbu bo'shliqni to'ldirishga xizmat qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda boshlang'ich sinf o'quvchilarida leksik kompetentlikni shakllantirish jarayonida TRIZ texnologiyasining pedagogik imkoniyatlarini aniqlash va ularning ta'lim jarayonidagi samaradorligini baholash metodologiyasi ishlab chiqildi. Tadqiqotning metodologik asosi zamonaviy pedagogik texnologiyalar nazariyasi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetentlik yondashuvi hamda ijodiy fikrlashni rivojlantirish konsepsiyalariga tayanadi.



## TADQIQOTNING NAZARIY ASOSLARI

Tadqiqotning nazariy asosini G. S. Altshullarning “Ijodiy muammolarni yechish nazariyasi” (TRIZ), V. V. Davydov, L. S. Vygotskiy, A. N. Leontyevlarning faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim haqidagi g'oyalari, shuningdek, o'quvchi shaxsining ijodiy salohiyatini rivojlantirishga doir mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etadi.

Shuningdek, o'quvchilarda leksik kompetentlikni shakllantirish bo'yicha G. Davletova, A. Azizova, N. Mamatova, X. Choriev kabi olimlarning tadqiqotlari tahlil qilindi.

### Tadqiqotning maqsadi:

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida leksik kompetentlikni rivojlantirish jarayonida TRIZ texnologiyasi elementlarini qo'llashning samaradorligini aniqlash va uning metodik asoslarini ishlab chiqish.

### Tadqiqotning vazifalari:

1. Leksik kompetentlik tushunchasining mazmun-mohiyatini nazariy jihatdan tahlil qilish;
2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida leksik kompetentlikni shakllantirishga doir mavjud metodik tajribalarni o'rganish;
3. TRIZ texnologiyasining asosiy tamoyillari va ularning ta'lim jarayonidagi o'rni hamda imkoniyatlarini aniqlash;
4. Leksik kompetentlikni TRIZ texnologiyasi yordamida rivojlantirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar tizimini ishlab chiqish;
5. Taklif etilgan metodikaning samaradorligini tajriba-sinov ishlari orqali aniqlash.

### Tadqiqot predmeti:

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida leksik kompetentlikni shakllantirish jarayonida TRIZ texnologiyasi elementlaridan foydalanishning metodik xususiyatlari.

### Tadqiqot obyekti:

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning leksik kompetentligini rivojlantirish jarayoni.

### Tadqiqot metodlari:

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

- **Nazariy tahlil** – mavjud ilmiy, metodik va pedagogik adabiyotlarni o'rganish, tahlil qilish va umumlashtirish;
- **Kuzatish** – dars jarayonlarida o'quvchilarning faoliyatini kuzatish, ularning leksik kompetentligini rivojlantirish darajasini aniqlash;
- **Tajriba-sinov** – TRIZ texnologiyasi asosida ishlab chiqilgan mashg'ulotlarni amaliyotda sinovdan o'tkazish;
- **So'rovnom va suhbat** – o'qituvchi va o'quvchilarning fikrlarini aniqlash, tahlil qilish;
- **Matematik-statistik tahlil** – tajriba natijalarini miqdoriy jihatdan tahlil qilish, samaradorlikni aniqlash.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning leksik kompetentligini shakllantirish ta'limning asosiy maqsadlaridan biridir. Leksik kompetentlik – bu o'quvchining so'z boyligidan to'g'ri va maqsadga muvofiq foydalanish, so'z ma'nolarini farqlay olish, ularni nutqda mustaqil qo'llash hamda o'z fikrini aniq ifodalash qobiliyatidir. Mazkur kompetentlik o'quvchining tafakkur, nutq, muloqot va ijodkorlik salohiyatining rivojlanishiga bevosita ta'sir etadi.

So'nggi yillarda ta'limda innovatsion texnologiyalar, xususan, TRIZ texnologiyasi (Ijodiy masalalarni yechish nazariyasi) o'quvchilarning tafakkurini faollashtirish, so'z boyligini kengaytirish va ijodiy fikrlashni shakllantirishda muhim vosita sifatida e'tirof etilmoqda. G. S. Altshuller tomonidan ishlab chiqilgan ushbu texnologiya o'quvchilarda muammoli vaziyatlar orqali yechim topish, qarama-qarshiliklarni tahlil qilish, so'zlar orasidagi mantiqiy bog'lanishlarni izlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida leksik kompetentlikni TRIZ yondashuvi yordamida rivojlantirishda quyidagi yo'nalishlar samarali hisoblanadi:

### 1. So'zlar bilan ijodiy ishlash.

O'quvchilarga ma'lum bir so'z berilib, undan yangi so'z hosil qilish yoki unga yangi ma'no berish topshirig'i beriladi.

*Masalan:* “yorug’” so'zidan “yorug'lik”, “yoritmoq”, “yorishmoq” kabi so'zlarni hosil qilib, ularning ma'nosini solishtirish topshiriladi.

Bu usul orqali o'quvchi so'zlarning morfologik tuzilishini tushunadi va leksik boyligini mustahkamlaydi.

## 2. Muammoli vaziyat yaratish.

O'quvchilarga fikrlashga undovchi savollar beriladi.

*Masalan:* "Agar 'daryo' so'zi bo'lmaganda, uni qanday so'z bilan almashtirgan bo'lardik?"

Bu savol o'quvchilarda assotsiativ fikrlashni rivojlantiradi – ular "oqim", "suv yo'li", "katta ariq" kabi ijodiy javoblarni topishga harakat qilishadi.

## 3. So'zlar o'rtasidagi qarama-qarshilikni topish.

TRIZning asosiy tamoyillaridan biri – qarama-qarshilikni tahlil qilishdir.

*Masalan:* "issiq – sovuq", "yorug' – qorong'u", "katta – kichik" juftliklarini topish va ularni kontekstda ishlatish orqali o'quvchi so'z ma'nolarini chuqurroq anglaydi.

## 4. Ijodiy hikoya tuzish.

O'quvchilarga 3–4 ta tasodifiy so'z berilib, ularning ishtirokida kichik hikoya tuzish topshiriladi.

*Masalan:* "qush", "daraxt", "shamol", "bolalar" so'zlaridan foydalangan holda hikoya yaratish.

Bu mashq o'quvchilarning leksik kompetentligini faollashtiradi, ularning so'zlarni ma'noli bog'lay olish qobiliyatini shakllantiradi.

Shuningdek, TRIZ texnologiyasining "fantaziya" tamoyili asosida o'quvchilarga so'zlar orqali yangi narsani ixtiro qilish, ertakdagi so'zlar bilan yangi yakun tuzish yoki "so'z o'rnini almashtirib yangi gap hosil qilish" kabi topshiriqlar berish samaralidir.

*Masalan:* o'qituvchi "Osmonda quyosh kulib turardi" gapini beradi.

O'quvchi esa so'z tartibini o'zgartirib: "Quyosh osmonda kulib turardi" yoki "Kulib turgan osmonda quyosh" kabi yangi ifoda yaratadi.

Bu usul o'quvchining so'z tanlash madaniyatini, ma'no nozikliklarini his qilish qobiliyatini oshiradi. Natijada, TRIZ texnologiyasi yordamida o'quvchilar faqat so'zlarni yodlab olish emas, balki ularning ma'nosini chuqur anglab, ulardan ijodiy foydalanishni o'rganadilar. Bunday yondashuv o'quvchilarda leksik tafakkur, mustaqil fikrlash va nutqni ongli tashkil etish malakasini rivojlantiradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Boshlang'ich ta'lim jarayonida leksik kompetentlikni shakllantirish o'quvchining nafaqat nutqiy, balki fikrlash, tahlil qilish va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, o'quvchilarning so'z boyligini kengaytirish jarayonida TRIZ texnologiyasidan foydalanish ularning tafakkurini faollashtiradi, mustaqil fikr yuritish va ma'noni anglash jarayoniga qiziqishini sezilarli darajada oshiradi.

TRIZ texnologiyasi orqali o'quvchi so'zlarning ma'nosini tahlil qiladi, ularni turli kontekstlarda qo'llashni o'rganadi, qarama-qarshi tushunchalarni ajrata oladi, shuningdek, so'zlar bilan ijodiy o'yinlar o'ynab, o'z nutqini boyitadi. Bu esa leksik kompetentlikni rivojlantirishning samarali yo'nalishlaridan biri ekanini tasdiqlaydi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi TRIZ metodlarini to'g'ri qo'llay olsa, o'quvchi so'zlarni faqat yodlab oluvchi emas, balki ularning mohiyatini tushunuvchi, yangi ma'nolarni yaratishga qodir ijodkor shaxs sifatida shakllanadi. Shu bois, TRIZ texnologiyasi leksik kompetentlikni rivojlantirishda nafaqat metodik, balki psixologik va ijodiy rivojlanish vositasi sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Kelgusida ushbu yo'nalishda amaliy tajribalar o'tkazish, TRIZ texnologiyasiga asoslangan leksik mashqlar majmuasini yaratish va ularning o'quvchilar nutq rivojiga ta'sirini o'rganish istiqbolli ilmiy-tadqiqot yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Altshuller, G. S. Ijodiy masalalarni yechish nazariyasi (TRIZ). – Moskva: Znaniye nashriyoti, 1986.
2. Xodjayev, B. H. Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
3. Yo'ldoshev, J. G., Hasanboyeva, O. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Noshir, 2021.
4. Karimova, V. M. Psixologik-pedagogik asoslar: boshlang'ich ta'limda o'qitish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2020.
5. Fayzieva, N. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar. // "Ta'lim va innovatsiyalar" jurnali, №2, 2023.
6. Abdullayeva, D. TRIZ texnologiyasi asosida ijodiy tafakkurni rivojlantirish imkoniyatlari. // "UzBridge" ilmiy jurnal, №4, 2022.
7. Gadzhiev, A. I. TRIZ v obrazovanii: metod razvitiya tvorcheskogo myshleniya. – Moskva: Akademkniga, 2015.
8. Tursunova, M. Boshlang'ich ta'limda leksik kompetentlikni shakllantirish metodikasi. // "O'zbekiston pedagogik yangiliklari" jurnali, №1, 2024.
9. Xolmatova, S. Til o'qitishda kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyati. – Toshkent: Innovatsion ta'lim markazi, 2022.
10. Xalilova, M. TRIZ texnologiyasining boshlang'ich ta'limdagi o'rnini. – Toshkent: TDPU ilmiy to'plami, 2023.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №11**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.